

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal

MUSIQA PEDAGOGIKASI.
MADANIYAT.
ETNOGRAFIYA

2025, №2

ISSN 3060-5079

MUSIQA PEDAGOGIKASI. MADANIYAT. ETNOGRAFIYA

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2025-yil, 2-son

Jurnal 2025-yildan chiqa boshlangan

“KAMOLOT” nashriyoti

BUXORO – 2025

Muassis: "Musiqqa san'ati va madaniyati" MCHJ

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2025-
yil 04-aprel №738018-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

**Bosh muharrir:**

Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich, pedagogika fanlari doktori (DSc),
professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Mustafoev Baxtiyor Ibragimovich, pedagogika fanlari nomzodi, professor

Mas'ul kotib:

Sidiqova Dilora Shavkatovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent.

Omonova Dildora Nekmurod qizi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent.

*Jurnal 2025-yilda tashkil etilgan, 2 oyda bir marta o'zbek, rus va ingliz tillarida
nashr etiladi.*

Tahririyat manzili: 200100, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri

Piridasgir ko'chasi, 12-uy

E-mail: sjkamolot@gmail.com

Jurnal sayti: www.musicjournal.uz

ISSN 3060-5079

Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir.

TAHRIR HAY'ATI:

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor. Buxoro davlat universiteti.

13.00.00-PEDAGOGIKA FANLARI

Adizov Baxtiyor Raxmonovich professori, pedagogika fanlari doktori. Buxoro davlat universiteti.

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor. O'zRFA akademigi.

Mustafayev Shomurod Normuminovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent. Samarqand davlat universiteti.

Panjiyev Qurboniyoz Berdiyevich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor. Xalqaro Nordik universiteti.

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor. Buxoro davlat universiteti.

Qiyamov Nishon Sadikovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professori. Samarqand davlat universiteti.

Rajabov To'xtasin Ibodovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor. Buxoro davlat universiteti.

Safaraliyev Bozor Safaraliyevich, pedagogika fanlari doktori, professor. Chelyabinsk davlat madaniyat instituti. Rossiya.

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor. Buxoro davlat universiteti.

Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor. Buxoro davlat pedagogika instituti.

Ahmadov Olim Shodmonovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti.

Ruziyev Davron Yuldashevich, pedagogika fanlari nomzodi, professor. Buxoro davlat universiteti.

Aripbayeva Lyazzat Sharipovna, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Qozog'iston Respublikasi M.Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston davlat universiteti.

Muxametzyanova Liliya Renatovna, pedagogika fanlari nomzodi, professor. Kazan Federal universiteti.

Farmonova Shabon Muhamadovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. Buxoro davlat universiteti.

Umurov Zarif Latifboyevich pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti.

Husenova Aziza Sharipovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti.

Tog'ayeva Umida Shavqi qizi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. Buxoro davlat universiteti.

Abdullayeva Feruza Nurulloyevna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti.

Jumayeva Habiba G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Buxoro davlat pedagogika instituti.

Qayumov Laziz Mirzo o'g'li, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Buxoro davlat pedagogika instituti.

07.00.00-TARIX FANLARI

Hayitov Shodmon Axmadovich, tarix fanlari doktori, professor. Buxoro davlat universiteti.

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor. Buxoro davlat universiteti.

Vohidov Shodmon Husenovich, tarix fanlari doktori, professor. Marmara universiteti, Turkiya.

Maxmudova Nigora Barotovna, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent. Buxoro davlat universiteti.

Jo'rayeva Nafisa Olimovna, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent. Buxoro davlat universiteti.

09.00.00-FALSAFA FANLARI

Teshayev Nutfillo Nasrulloevich, falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent. Buxoro davlat universiteti.

Muzaffarov Feruz Davronovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor. Buxoro davlat universiteti.

Turdiyev Behruz Sobirovich, falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent. Buxoro davlat universiteti.

Xuseynova Abira Amanovna, falsafa fanlari doktori, professor. Buxoro davlat universiteti.

10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI

O'rayeva Darmonoy Saidaxmedovna, filologiya fanlari doktori, professor. Buxoro davlat universiteti.

Radjabov Dilshod Zaripovich, filologiya fanlari doktori(DSc), professor. Buxoro davlat universiteti.

Yusupova Alfiya Shavketovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor. Kazan Federal universiteti.

Nosirov Otabek Timurovich, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. Buxoro davlat universiteti.

Jumayev Ruzokul Xoliqulovich filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti.

17.00.00-SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI

Moroz Viktor Dmitriyevich, professor. Chelyabinsk davlat madaniyat instituti, Rossiya Federatsiyasida xizmat ko'rsatgan artist.

Tashmatova Azatgul Raximovna, san'atshunoslik fanlari doktori, professor. O'zbekiston davlat konservatoriyasi.

Abdullayev Rustambek Samig'ovich, san'atshunoslik fanlari doktori, professor. O'zbekiston davlat konservatoriyasi.

Ashurov Baxtiyor Shokirovich, san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. O'zbekiston davlat konservatoriyasi.

Boltayev Rustam Qurbonovich, san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent. Urganch davlat universiteti.

22.00.00-SOTSILOGIYA FANLARI

Karimov Bobir Sharopovich, sotsiologiya fanlari doktori (DSc), professor. **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.**

Qayumova Aziza Toshpo'latovna, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent. Buxoro davlat universiteti.

Amonov Azizbek Amonovich, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent. Buxoro davlat universiteti.

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, (PhD) professor. Buxoro davlat universiteti.

19.00.00-PSIXOLOGIYA

Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor. Buxoro davlat universiteti.

Ganjyev Feruz Furqatovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent. Buxoro davlat universiteti.

Rustamov Shavkat Shuxratovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent. Buxoro davlat universiteti.

Safarov Dilmurod Xalimovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor. Buxoro davlat universiteti.

MUNDARIJA:

1	Ashrapov Nodirbek Namoz ugli. ЭМОЦИОНАЛЬНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ У ПОДРОСТКОВ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА КОГНИТИВНОЕ РАЗВИТИЕ	7
2	Ashurov Mahmud Shaxobovich. O'QUVCHI - YOSHLARDA MILLIY G'URUR VA IFTIXOR TUYG'ULARINI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQA SAN'ATI VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK MAZMUNI	12
3	Urinova Sabina Shuxrat qizi. BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINING KREATIVLIGINI MUSIQIY-NAZARIY FANLAR VOSITASIDA OSHIRISH SAMARADORLIGI	19
4	Jo'rayeva Nafisa Olimovna. XO'JA CHORSHANBE ZIYORATGOHI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR	31
5	Qurbonova Manzila Boqiyevna. BUXORO VOHASI MODDIY MADANIYATIDA OSHNING PISHIRILISHI	36
6	Kalandarova Ferangiz Azamatovna. MIRZO SOMIY VA UNING SHAXSIY KOLLEKSIYASI	45
7	Sotvoldiyev Jaxongir Sultonali o'g'li. BARQARORLIK VA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA PARLAMENTLARARO ITTIFOQNING ROLI	49
8	Шарофидинзод Муслихиддин Шарофидин. НАҚШИ САЊЪАТИ МУСИҚЎ ДАР ТАРБИЯИ ФАРЊАНГИ АХЛОҚЎ ВА ЭСТЕТИКИИ КУДАКОН	55
9	Серегин Николай Василевич. ПЕРСПЕКТИВЫ МОДЕЛИРОВАНИЯ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПОСТИНДУСТРИАЛЬНЫЙ ПЕРИОД	62
10	Кочекон Владимир Федорович. ДЕТСКИЙ ЛЮБИТЕЛЬСКИЙ МУЗЫКАЛЬНЫЙ ТЕАТР: СОСТОЯНИЕ И ПРОБЛЕМЫ	67
11	Саидов Саидбахром. ҲАМСАРОЙ ҲАМЧУН ОМИЛИ РУШДИ ФАЪОЛИЯТНОКИИ МУҲАССИЛИН	74
12	Axrorova Munajat Mashraf qizi. ZAMONAVIY PEDAGOGIK MUHIT YARATISH ORQALI BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH	81
13	Зокирзода Сухроб Ибод. КУЛЬТУРНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО СТРАН ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ КАК ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ РЕГИОНАЛЬНОЙ ИНТЕГРАЦИИ	95
14	Рустамов Шавкат Шухратович. ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ ФАКТОРОВ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ	98
15	Shirinov Anvar Qanoatovich. YANGI O'ZBEKISTON-2030 STRATEGIYASIDA INSON TARAQQIYOTI MASALALARINING RETROSPEKTIV TAHLILI	104
16	Qosimova Nilola Jamshedovna. BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASINING TARKIBIY TUZILISHI	109
17	Sharopova Nigina Kadirovna. O'ZBEKISTONDA MINTAQAVIY BARQAROR RIVOJLANISH SAMARADORLIGINI VAHOLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	119
18	Шоев Иззатулло Хусенович. ОСОБЕННОСТИ СУДОУСТРОЙСТВА В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ	126
19	Турдиев Бехруз Собирович. ПРИНЯТИЕ НОВОЙ РЕДАКЦИИ КОНСТИТУЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ОБОСНОВАНИЕ НЕОБХОДИМОСТИ ЕЕ ПРИНЯТИЯ	133

Jo'rayeva Nafisa Olimovna

Buxoro davlat universiteti

Ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasida dotsenti

XO'JA CHORSHANBE ZIYORATGOHI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro shahridagi Xo'ja Chorshanbe ziyoratgohi tarixi, hududining asrlar davomida kengayish va qisqarish sabablari, shuningdek, bugungi kundagi topografik o'rni xususidagi mulohazalar keltirilgan. Maqolada shu kabi masalalar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Havzi Miqdom, Jo'ybor xo'jalari, Tali Xo'ja Chorshanbe, Somoniylar davri, muqaddas ziyoratgoh.

НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ О ХРАМЕ ХОДЖИ ЧОРШАНБЕ

Аннотация. В данной статье представлена история святыни Ходжи Чоршанбе в Бухаре, причины его расширения и сжатия на протяжении веков, а также даны комментарии по его топографическому положению в наши дни. В статье говорится о таких вопросах.

Ключевые слова: Хавзи Микдом, Джойбор Ходжас, Тали Ходжа Чоршанбе, период Самони, святыня.

SOME CONSIDERATIONS ABOUT THE SHRINE OF KHOJA CHORSHANBE

Annotation. In the following article the Khoja Chorshanbe Shrine, located on the southwestern side of the city of Bukhara in the Middle Ages, which became an important part of the city, the historical location of this pilgrimage site is assessed, the changes it underwent over the centuries, the reasons for the expansion and contraction of its area, and also provides reflections on its current topographic location are discussed. The article discusses such issues in detail.

Key words: Havzi Miqdam, Jooybor family, Tali Khoja Chorshanbe, Period of Samanids, sacred pilgrimage site.

Kirish. Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida ajdodlarimiz xotirasini ulug'lash maqsadida muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlarni obodonlashtirish, ularni rekonstruksiya qilish va ta'mirlash borasida keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning bebaho ma'naviy merosini o'rganishda ham muhim qadamlar qo'yildi. Ayniqsa, qadamjolar tarixiy topografiyasini tadqiq qilishda ham salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Aynan shunday tadqiqotlar yordamida yo'qolib ketishi mumkin bo'lgan noyob tarixiy obyekt ("ajoyib umumbashariy qadriyat")lar aniqlanib, uni asrab-avaylash, saqlab qolish choralari ishlab chiqiladi. Shu maqsadda har yili UNESCO tomonidan yangi madaniy meros obyektlari aniqlanib, xalqaro miqyosda muhofazaga olinadi [2024:13].

Muqaddas qadamjolar topografiyasini o'rganish orqali o'rta asr shaharlari tarixiy qiyofasini tiklash – ko'p asrlilik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash, jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlashning zarur shartlaridan biri hisoblanadi [2024: 13].

Xo'ja Chorshanbe mozori tarixiy topografiyasi to'g'risida o'rta asr muarrixlari Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiyning Buxoro tarixi [Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy, 2011:482], Muin al-fuqaro Ahmad ibn Mahmud Buxoriyning Tarixi Mullozoda [Ахмад ибн Бухорий, 2019: 90], hamda Nosir ad-Din al-Xanafi al- Xasani al-Buxoriyning Tuxfat az-zairin [Носир ад-Дин, 2021:62] asarlarida ma'lumotlar yozib qoldirilgan. Bu manbalarda ko'roq ziyoratgohda dafn qilingan din va tasavvuf namoyandalari faoliyati haqida ma'lumotlar taqdim

qilingan.

Shuningdek, rus sayyoh va elchilari N.Xanikov, A.Berns, L.Kostenko, A.Vamberi, I.Poslavskiylar tomonidan tuzilgan Buxoro shahrining oʻrta asrlardagi hududi tasvirlangan topografik plan va xaritalardan ziyoratgohning oʻsha davrdagi topografik oʻrnini aniqlasa boʻladi. Buxoro tarixi boʻyicha yaratilgan bu tadqiqotlarda shahar tarixi, uning meʼmoriy qiyofasi, hududi, aholisi, etnografiyasi, diniy eʼtiqod va madaniyati, chegarasi, iqlimi, suv bilan taʼminlanganlik darajasi, sugʻorish inshootlari haqida maʼlumotlar berilgan. Shuningdek, ushbu tadqiqotlarning shahar topografiyasiga oid paragraflarida muqaddas qadamjolar toʻgʻrisida ayrim maʼlumotlar qayd qilingan [Joʻrayeva, 2024:4-5].

Buxoro shahri ziyoratgohlari tarixini oʻrganishda taniqli olim O.A.Suxarevaning tadqiqotlarini alohida taʼkidlash lozim. Olima ijodiy faoliyatida ziyoratgoh va qadamjolar Buxoro tarixiy topografiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida tavsiflanadi. Ularning qurilishi va kompozitsiyasidagi oʻzgarish va yangiliklar shahar evolyutsiyasi bilan birgalikda sodir boʻlganligini qator arxeologik tadqiqotlar bilan asoslab beradi. Olima ularni klassifikatsiyasini yaratadi. U Fenin xaritasida koʻrsatilgan 30 ta qabristonning biri, yaʼni 14 raqami ostida Xoʻja Chorshanbe qabristoni tasvirlanganligini taʼkidlaydi [Сухарева, 1958:41-41, Сухарева, 1966:84].

Mustaqillikdan keyingi davr shahar topografiyasini kompleks ravishda oʻrganishdan tashqari, uni yoʻnalishlar boʻyicha ham tadqiq qilishda muhim bosqich boʻldi. Buxoro shahri tarixiga bagʻishlangan tadqiqotlarda Xoʻja Chorshanbe mozori haqidagi baʼzi maʼlumotlarni topish mumkin [Садриддин Салим Бухорий, 2015:278]. Keyingi yillarda mazkur mavzuda qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirildi, dissertatsiyalar himoya qilindi.

Ammo yuqorida nomlari qayd qilingan biron tadqiqotda Xoʻja Chorshanbe mozori kompleks, yaxlit ilmiy tadqiqod sifatida oʻrganilmagan.

Buxoro shahrining janubiy-gʻarbiy tomonida joylashib, uning tarixiy topografiyasining muhim tarkibiy qismiga aylangan Xoʻja Chorshanbe mozori islom olamining maʼruf ulamo, ulugʻ olim, karomat, zuhd va mujtahid sohibi rivoyatlar, faqih, fozil va zohid imomlar, imom al humom, zubdat ul-inom va voiz ul-muluk va –s-salotin (shohu sultonlar voizi) kabi Buxoroning oʻrta asr diniy arbob va ulamolari dafn qilingan muqaddas ziyoratgoh sanaladi [Ахмад ибн Махмуд Бухорий, 2009:49].

Xoʻja Chorshanbe mozori haqidagi maʼlumotlar oʻrta asr mualliflari Ahmad ibn Mahmudning “Tarixi Mullozoda” hamda Sayyid Muhammad Nosirning “Tuhfat uz-zoirin” (“Ziyoratchilarga tuhfa”) asarlarida yoritilgan. Mazkur asarlarda Buxoro mozorlari qatorida Xoʻja Chorshanbe mozori xususida baʼzi maʼlumotlar qayd qilingan. Mazkur manba va boshqa adabiyotlarga tayanib, mozorning hududi, chegarasi, aholi turar joylariga nisbatan uning joylashuvi kabi baʼzi masalalar haqida mulohaza yuritimiz.

Xoʻja Chorshanbe mozori Buxoro shahridagi Chashmayi Ayyub, Turki Jandi, Xoʻja Bulgʻor, Xoʻja Nurobod, Xoʻja Sesaron qabristonlari kabi qadimiy sanaladi. Bu joyni ilgari Havzi Miqdom mozori deb atashgan [Ахмад ибн Махмуд Бухорий, 2009: 47]. Ayrim hollarda Havzi Miqdom mozorini Tali Xoʻja Chorshanbe deb ham nomlashgan. Qabristonni Havzi Miqdom deb atalishiga sabab, ayrim mualliflar, bu yerda hovuz boʻlgan deb taʼkidlashadi.

Tarixiy manbalarda Xoʻja Chorshanbe qabristonida dafn qilingan taniqli din va fan arboblari (Abu Abdulloh Hoshid ibn Abdulloh as-Sufiy al-Obid al-Buxoriy, imom va muhaddis Hofiz Gʻunjour, Xoʻja Dahniyoz, Imom Muhammad ibn Muhammad ibn Ibrohim al-Basir al-Maydoniy al-Buxoriy, Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad ibn Ismoil...) haqida maʼlumotlar bayon qilingan. Nomlari yuqorida qayd qilingan Buxoroning mashhur din arboblarning qaysi davrda yashab faoliyat yuritganlariga asoslanib, Xoʻja Chorshanbe qabristoni Somoniylar davriga tegishli deb xulosa qilish mumkin. Asrlar davomida qabriston atrofi kengayib borgan.

Aftidan Xoja Chorshanbe qabristoni XVI-asrda ham oʻz ijtimoiy-maʼnaviy ahamiyatini yoqotmagan koʻrinadi. Negaki, Joʻybor xoʻjalarining ota-bobolari Buxorodagi Chor Bakr mozoriga dafn qilingan boʻlsa-da, bu nufuzli xonadonning ayrim vakillari Xoʻja Chorshanbe mozorida dafn qilingan. “Tuhfat uz-zoirin” asarida Xoʻja Chorshanbe tepaligida dafn qilingan ulugʻ avliyo va din arboblarning mozorlari va ziyorat obʼyektlari haqida muhim maʼlumotlar

keltirilgan. Jumladan, asarda Imom Ala ul-haqq va din Imom Muzaffar (1349- yilda vafot etgan), Xo'ja Kamol ad-din Tohir ibn Hazrat Imom Muzaffar (1432-yilda vafot etgan), Sirojiddin Muhammad Shayx ul-islom, Muhiddin Muhammad Yahyo, Xo'ja Nizomiddin ibn Xo'ja Muhammad Yahyolar shu mozorda dafn etilganligi ta'kidlaniladi [Мухаммад Насириддин Ал-Ханафи Ал-Хасани Ал-Бухари, 2003:20].

Tarixiy adabiyotlarda Xo'ja Chorshanbe tepaligi shimolida Xo'ja Aspgardon ziyoratgohi joylashganligi to'g'risida quyidagi topografik qaydlar uchraydi: Xo'ja Aspgardon mazkur talning shimolida, talning sharqida Havzi Arbob va masjidning qiblasida, Xo'ja Rushnoiyning marqadi va Bozori nav serahasida (uchta yo'l bo'lingan joyda) Imom Muhammad G'azzoliyning munavvar qabri bor [Ахмад ибн Махмуд Бухорий, 2009:49]. Nazarimizda, XIX-XX asrlarda Xo'ja Chorshanbe Buxoro shahridagi yirik qabristonga aylanib, hududlarning joylashgan o'rni va yo'nalishi mazkur qabristonga qarab belgilangan. Taniqli buxoroshunos olim O.A.Suxareva ham Buxoro shahrida Xo'ja Aspgardon kvartalining kattagina qismini Xo'ja Chorshanbe qabristoni egallaydi, deb ta'kidlaydi [Сухарева, 1979:166]. Demak, Xo'ja Chorshanbe mozorining shimoliy qismlari Xo'ja Aspgardon, sharqiy tomoni Havzi Arbob kvartaliga borib tutashgan. Shuning uchun ham olim tadqiqot olib borgan davrda Xo'ja Aspgardon kvartalining juda katta qismini qabriston (tal, pushta) egallaganligi sababli rasmiy hujjatlarda bu kvartal Xo'ja Aspgardon kvartali deb atalsa-da, mahalliy aholi uni Xo'ja Chorshanbe kvartali deb atashgan [Сухарева, 1979:166].

“Tuhfat uz-zoirin” asarida Xo'ja Aspgardon nomi bilan atalgan shaxs va uning to'liq ismi haqida ham ma'lumot beriladi. Jumladan, Xo'ja O'ktam (Xo'ja G'aribning uchinchi o'rinbosari)ning qabri Xo'ja Chorshanbe mozorining g'arbiy qismida joylashib, bu kishi xalq orasida Xo'ja Aspgardon nomi bilan mashhur bo'lganligi ta'kidlaniladi [Мухаммад Насириддин Ал-Ханафи Ал-Хасани Ал-Бухари, 2003:42]. Xo'ja Kabir Hoja Abduxoliq G'ijduvoniyning xalifalari hisoblanib, Xo'ja G'arib bu kishining farzandi hisoblangan [Ахмад ибн Махмуд Бухорий, 2009:76]. Xo'ja Kabirning mozorlari qal'a devori etagida, Ayyor minorasi yonida joylashgan [Мухаммад Насириддин Ал-Ханафи Ал-Хасани Ал-Бухари, 2003:41]. Muallif qal'a devori etagida deganda, shahristonning shimoliy qismidan Avliyoyi Kabirga kelishdagi kenglikni nazarda tutgan. Gayoron minorasi “Tarixi Mullozoda” da Burji Ayur minorasi sifatida qayd qilingan [Ахмад ибн Махмуд Бухорий, 2009:76]. Ko'rinadiki, Gayoron minorasi, ba'zi adabiyotlarda Burji Ayur minorasi deb ham atalgan. Yuqorida “Tarixi Mullozoda”da Xo'ja Avliyoyi Kalonning qabri joylashgan hududni “Hisor (qal'a) tuproq uyumiga yaqin” deb ko'rsatilishi, haqiqatan ham shahriston shimolida tepalik bo'lganligini ko'rsatadi.

Manbalarda Xo'ja G'arib ilmu ma'rifatda yuksak mavqe va iqtidorga ega ulug' avliyo sifatida ta'riflanadi. “Tuhfat uz-zoirin” da Xo'ja Chorshanbe va Xo'ja Aspgardon qadamjolari (bugungi kunda tarixiy shahristonning g'arbiy tomonida joylashgan Xo'ja Aspgardon muqaddas qadamjosidan tashqari, Buxoro shahri Alpomish ko'chasida ham maydoni 0,25 gektardan iborat Xo'ja Aspgardon qabristoni mavjud) shaharning janubiy-g'arbiy tomonidagi chegaralari sifatida tavsiflanadi. Xo'ja Chorshanbe mozori haqida manbalarda ta'kidlangan yuqoridagi topografik chizgi va qaydlar Buxoro shahridagi Mulla Muhammad Sharif madrasasidan g'arbda, Masjid Balanddan shimoliy-sharqda, Qo'sh madrasaning sharqiy tomonida yirik qabriston (Tale Pushta) bo'lganligini ko'rsatadi.

Shuningdek, o'sha davrda yaratilgan shahar rejalarda ham bu o'z aksini topgan. Jumladan, Fenin rejasida shahardagi qabristonlar soni 30 ta (Eshoni Imlo, Imom Qozixon, Mavlono Sharif, Xo'ja Chorshanbe, Xo'ja Nurobod, Zindafil Ahmadi Jomiy, Hazrat Ayyub, Shermuhammad juvozkash, Xo'ja Avliyoyi Kabir, Xo'ja Ro'shnoyi, Eshoni ustoz, Xo'ja Sesaron, Xo'ja G'oib, Xo'ja Bulg'or, Shoh Aysi, Xo'ja Avliyoyi G'arib, Xo'ja Ali Atlaspo'sh, Xo'ja Amonboy, Mirakon, Oq Mozor, Xo'ja Kalon, Xalfa Husayn, Turki Jandi, Shayx Rangrez, Ishoni Imlo, Xo'ja Girebon Chok, Xo'ja G'unjori, Ismoil Somoniy maqbarasi, Yozda Birodaron, Shayx Jalol [Сухарева, 1966:84]

N.Xanikov rejasida ular 13 ta (Eshoni Xo'ja Xudoydod, Hazrati Eshoni Imlo, Go'ristoni Jo'ybor, Hazrati eshoni Habibulloh, Imom Qozixon, Xo'ja Ro'shnoi, Xo'ja Gardon, Xo'ja Bulg'or, Turki Jandi, Kimsangiron, Xo'ja Pobband, Xo'ja Nurobod, Mirakon) ni tashkil qilgan [

Хаников, 1843:81].

XIX asrning 30-yillari aks etgan Buxoro shahri chizma (xarita)larida eng yirik qabristonlar sifatida Abu Is'hoq Kalobodi madrasasining shimolidagi Xo'ja Nurobod, undan shimoliy-g'arbda Xo'ja Sesaron, shaharning g'arbidagi joylashgan Chashmai Ayyub, Ismoil Somoniy, shahriston janubiy-g'arbidagi Xalifa Xudoydod, Xo'ja Chorshanbe, shahar janubida Namozgoh darvozasiga borishdagi Shams al-Mulk mozorlari aks etganligini qayd qilish mumkin [Абу БакрМуҳаммад ибн Жаъфар Наршахий, 2011: 484].

Ayniqsa, XX- asr boshlarida bu holatni Ismoil Somoniy, Turki Jandi, Xo'ja Bulg'or va Chashmai Ayyub maqbarasi atrofida yuzaga kelgan tepalik ko'rinishidagi sag'analar misolida ko'rish mumkin. 1910-yilda Buxoro shahrida 70 dan ortiq pushtalar bo'lib, ular shahar maydonining 12 % ini tashkil qilgan [Некрасова, 2008:38].

Fikrimizcha, Xo'ja Chorshanbe mozorida dastlabki topografik o'zgartirishlar Somoniylar davrida amalga oshirilgan. Taniqli olim R.Gafurova Somoniylar davrining taniqli imomi Abu Muhammad Abdulloh ibn Yaqub ibn al-Xosir Safidmuniy (vafoti 340/952)ning mozorini ham xuddi shu Xo'ja Chorshanbe tepaligida joylashganligini ta'kidlaydi [Гафурова, 1992:11-12]. Olima o'zining ushbu qarashlari "Tarixi Mullozoda"da bayon qilingan Abdulloh Safidmuniyning qabri Abu Hafs Kabir maqbarasi yonida ekanligi haqidagi faktlarga to'g'ri kelmasligini ta'kidlaydi [Гафурова, 1992:11-12].

Demak, bu ikkala nomutanosib fikrga asoslanib, Somoniylar davrida Abdulloh Safidmuniyning qabri Xo'ja Chorshanbe tepaligida, so'ngra Mullozoda yashagan davrda esa uning qabri Xo'ja Chorshanbe tepaligidan Abu Hafs Kabir maqbarasi yoniga ko'chirilgan. Demak, Somoniylar davrida, ya'ni IX-X asrlarda shahar hududi kengaytirilib, shahar ichida yirik qurilishlar amalga oshirilgan. Bu qurilish va obodonlashtirish ishlari Xo'ja Chorshanbe mozorida ham topografik o'zgartirishlarni amalga oshirilishiga olib kelgan.

Arxeolog olim V.A.Shishkin Chashmai Ayyub, Xo'ja Chorshanbe, Turki Jandi, Xo'ja Bulg'or, Xo'ja Nurobod va Xo'ja Sesaron kabi eski qabristonlar XVI asr shahar devorini qayta qurishdan oldin shahar chegarasida, shahar devoridan tashqarida joylashganligini ta'kidlaydi [Шишкин, 1936:18-19]. Demak, XVI- asrda eski shaharda, haqiqatan ham, shahar kengayishi bilan bog'liq jarayonlar bo'lganligi olib borilgan arxeologik tadqiqotlarda o'z ilmiy tasdig'ini topgan. Yuqorida nomlari keltirilgan mozorlar XVI- asrda devor ko'chirilgandan so'ng shahar ichkarisiga olingan.

Xo'ja Chorshanbe mozorida keng miqiyosli topografik o'zgarishlar sobiq Ittifoq davrida amalga oshirilgan. XX- asr o'rtalarida amalga oshirilgan topografik o'zgarishlar Shayx Jalol mahallasiga tutash Sohobzoda, Mirakon, Xo'ja Chorshanbe kabi ko'chalarga ham ta'sir qilgan. 1928-yilda shahardagi va shahar devorlaridan tashqaridagi qabristonlar dafn qilish uchun yopilgan, XX asrning 40-70-yillarida ularning deyarli barchasi buzib tashlangan [Некрасова, 2008:38].

Haqiqatan ham, XX asrning 40-70-yillarida Buxoro shahri Tali G'aribon, Imom Qozixon, Sayfiddin Boxarziy, Turki Jandi, Jo'ybor, Tali Fayzobod, Xo'ja Chorshanbe, So'fiyoni Sauri, Chashmai Ayyub, Ismoil Somoniy maqbarasi atrofidagi qabristonlar buzib tashlangan, uning o'rni aholiga turar-joy uchastkalari sifatida bo'lib berilgan.

Mazkur tepalik joylashgan tarixiy hududda aholi turar joylari qad rostlab turibdi. Bugungi kunda Xo'ja Chorshanbe qabristonidan Usto Shirin ko'chasi 39-uyning oldida birgina sag'ana saqlab qolingan. Mazkur qabristonning shimoliy tomoni Xo'ja Aspgardon hovuzi va qadamjosiga tutashib ketgan. Hozirda Xo'ja Chorshanbe qabristoning tarixiy o'rnida Usto Shirin va Shota Rustaveli ko'chalari joylashgan.

Xulosa. Buxoro shahri tarixiy topografiyasini o'rganish, tadqiq qilish masalasi hamma davrda tadqiqotchilar diqqat markazidagi dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelgan. Bu borada muqaddas qadamjolar topografiyasini tadqiq qilish shahar tarixiy topografiyasidagi ayrim masalalarga oydinlik kiritadi. Sobiq Ittifoq davrida Buxoro shahrining tarixiy So'fiyon, Mirakon, Sohobzoda, Saraxsiyon, Jo'ybor va yana bir qancha guzarlari, shuningdek, Masjidi Baland yodgorligi, Xalifa Xudoydod yodgorlik kompleksi atrofida katta topografik o'zgarishlar amalga

oshirilgan. Bugun bu yerda qator aholi turar joylari qad koʻtargan.

Shaharning janubiy va markaziy qismida amalga oshirilgan bunday qayta qurish va yangilanishlar, shubhasiz, bu hududlarning asl tarixiy qiyofasini yoʻqolishiga olib kelgan.

Oʻzbekiston Mustaqillikka erishgach qadimiy va navqiron Buxoro shahrini zamonaviy va milliy shaharsozlik anʼanalari asosida qayta qurish, obodonlashtirish hamda bunyodkorlik ishlarini amalga oshirish muhim vazifaga aylandi. Mazkur muhim faoliyat yodgorliklarni asl tarixiy holda tiklash va taʼmirlashdan boshlandi.

Bugungi kunda Xoʻja Chorshanbe ziyoratgohida baʼzi tarixiy-tiklash ishlarni amalga oshirish Buxoroda ziyorat turizmini taraqqiy qilishi uchun muhim hissa boʻlib qoʻshiladi. Shu fikrga asoslanib, ayrim takliflarni ilgari suramiz: Buxoroning tabarruk maskani sanalgan Xoʻja Chorshanbe qabristoni (hozirda Buxoro shahridagi Usto Shirin Murodov koʻchasi) tarixiy oʻrnida ramziy qadamjo barpo qilish, bu yerda abadiy qoʻnim topgan ulugʻlarning nomlari qayd qilingan roʻyxatni shakllantirish, Xoʻja Chorshanbe ziyoratgohida dafn qilingan tasavvuf ilmi yirik namoyandalarining hayoti va faoliyati, ilmiy merosiga doir maʼlumotlarni kengroq yoritish va ommalashtirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.


Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар Наршахий (2011), Бухоро тарихи. (перевод, комментарии и примечания Ш.С.Камолитдина, археолого–топографический комментарий Е.Г.Некрасовой.–Ташкент: MultiMedia– Asia, –599с.
2. Аҳмад ибн Маҳмуд Бухорий “Муин ал-фуқаро”. (2009), Тарихи Муллозода.–Тошкент: Янги аср авлоди,–102 б.
3. Гафурова Р.Л. (1992), Китоби Мулла-заде./ Ответственный редактор Б.А.Ахмедов.–Ташкент: Фан, –Б.11-12.
4. Муҳаммад Насириддин Ал-Ханафи Ал-Хасани Ал-Бухари. (2003), Тухфат аз-заирин (Бухарская часть)/ Перевод с таджикско-персидского, предисловие и комментарий Х.Тураева.–Ташкент: Французский институт исследований Центральной Азии (IFEAC),–50 с.
5. Муин ал-фуқаро Аҳмад ибн Маҳмуд Бухорий (2019), Тарихи Муллозода (Форс тилидан таржима, муқаддима, тадқиқ, изоҳлар, иловалар муаллифи Комилжон Раҳимов.–Тошкент:Фан, –216.
6. Носир ад-Дин ал-Ханафи ал- Хасани ал-Бухорий (2021), Тухфат аз-заирин (“Подарок паломникам”) перевод с таджикско– персидского, предисловие и комментарии – Х.Тураев. –Ташкент: Splendid Idea, –204с
7. Некрасова Е.Г. (2008), Некрополь Турки Джанди в Бухаре (материалы по исторической, топографии, архитектуре и археологии) // Из истории культурного наследия Бухары.– Вып.11.–Бухара: Бухоро,–С.38.
8. Садриддин Салим Бухорий. (2015), Бухоронинг табаррук зиёратгоҳлари. – Тошкент:Наврӯз, –360 б.
9. Сухарева О.А. (1958), К истории городов Бухарского ханства (историко-этнографические очерк).–Ташкент:Изд-во АНУзССР, –191 с.
10. Сухарева О.А. (1966), Бухара XIX-начало XX в.(Позднефеодальный город и его населения).–Москва:Наука, –332 с.
11. Сухарева О.А. (1976), Квартальная община позднефеодального города Бухары.–Москва:Изд-во Наука главная редакция восточной литературы, –370 с.
12. Шишкин В.А. (1936), Архитектурные памятники Бухары.–Ташкент : Изд-во комитета наук УзССР, – 100 с.
13. Joʻrayeva N.O. (2024), Muqaddas qadamjolar Buxoro shahr tarixiy topografiyasining muhim tarkibiy qismi. (Monografiya), –Toshkent:Dimal, –156 b.












<p>MUSIQA PEDAGOGIKASI. MADANIYAT. ETNOGRAFIYA</p> <p>Ilmiy-nazariy va metodik jurnal</p> <p>2-son (2025-yil, may)</p> <p>Jurnal 2025-yildan chiqa boshlagan</p>	<p>Jurnal oliy o'quv yurtlarining professor- o'qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o'qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo'ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy- metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p>Original maket uchun mas'ul: Mirshod SATTOROV</p> <p>Maqolalarni qabul qiluvchi: Tuxtasin RAJABOV</p>	<p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi.</p> <p>Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi 01.05.2025</p> <p>Tezkor bosma usulda bosildi.</p> <p>Adadi – 100 nusxa</p> <p>Buyurtma № 1 Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>“BUXORO DETERMINANTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.</p> <p>Bosmaxona manzili: Buxoro shahri Namozgoh ko'chasi 24-uy.</p>
--	--	--

The background of the entire page is an abstract, fluid, and wavy pattern in shades of blue and purple. The colors transition from deep purples and blues on the left to lighter, almost white blues on the right. The lines are smooth and curved, creating a sense of motion and depth.

www.musicjournal.uz

ISSN

ISSN 3060-5079